

## 23-dars

### Darsning mavzusi: Buyruq gap (58 – 61-mashqlar)

**Darsning ta'limiy maqsadi:** gap, uning turlari haqida bilimlarni aniqlash va matnni ohang yordamida gaplarga ajratishga, gap oxirida zarur tinish belgilarini to'g'ri qo'yishga o'rgatish; o'qilgan matn mazmunini va o'zgaralar fikrini anglab, ifodalay olish, og'zaki nutqda so'z va gaplar ohangiga rioya qila olish; gapning turlarini farqlay olish, gapning ohangiga ko'ra tinish belgilarini ( nuqta, so'roq, undov belgilari) ishlata olish, darak gap haqidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Qabul qilingan yangi ma'lumotlarni amaliyotga tatbiq eta olish ko'nikmasini shakllantirish, o'zining xato va kamchiliklarini tushunib, o'zini nazorat qila olsih va xatolarini tuzatishga kirishish; mustaqil o'qib-o'rganish va bilimini muntazam oshirib borishga o'rgatish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** Og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish; talaffuz me'yorlariga, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qilgan holda gaplar tuzish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

**Dars turi:** Yangi bilim beruvchi dars

**Darsning metodi:** suhbat, "Gap tuz!" o'yini, ko'rgazmalilik, "Diqqat bolalar!" ta'limiy o'yini

**Darsning jihozi:** mavzuga oid rasmlar, turli so'zlar yozilgan tarqatmalar, multimedia ilovalari.

### Darsning borishi

#### I. Tashkiliy qism.

-salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga hozirlash.

#### II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

*Salomatlik – tuman boylik.*

O'tilgan mavzular yuzasidan "Gap tuz!" ta'limiy o'yini o'tkaziladi.

Buning uchun o'qituvchi nuqta, so'roq va undov belgisi yozilgan tarqatmalarni teskari holatda qo'yadi, o'quvchi esa qaysi tinish belgisini olsa shu belgiga mos gap tuzishi kerak bo'ladi. Buni bir necha marotaba takrorlab o'quvchilarning og'zaki nutqlarini aniqlash va baholash mumkin.

#### III. Yangi mavzu bayoni.

Yangi mavzuni tushuntirish jarayonida “Diqqat bolalar!” ta’limiy o’yini o’tkaziladi. Bunda darslikdagi 59-mashqqa o’quvchilar diqqati qaratiladi.

Berilgan matn o’qituvchi tomonidan ifodali o’qiladi. Savol va topshiriqlar aytiladi. Matnda nechta gap bor? (10ta) Matnda nechta gapga nuqta, so’roq belgisi va undov belgisi qo’yilganini aniqlang. Matndagi buyruq gaplarni ko’chiring.

Qoidani yod olish topshiriladi.

Buyurish, maslahat, iltimos buyruq mazmunini bildirgan gap deyiladi. Masalan: *Bolalar, yo’l harakati qoidalariga har doim amal qiling.* Buyruq gapning oxiriga nuqta qo’yiladi.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

Darslikdagi 58-mashq bajariladi. Rasm asosida hikoya tuzing, hikoyangizga sarlavha toping.

Hikoyangizda **darak** va **buyurish, maslahat, iltimos kabi** gaplardan foydalaning.

Arslon va sichqon (Ertak)

Arslon uxlab yotardi. Sichqon uning ustiga chiqib, yorg’alab ketdi. Arslon uyg’onib ketib, sichqonni tutib oldi. Sichqon undan qo’yib yuborishini so’radi:

-Meni qo’yub yubor, iltimos. Yaxshiligingni bir kun, albatta, qaytaraman!

Arslon sichqon yaxshilik qila olishiga ishonmay kulib qo’ydi. Lekin uni qo’yib yubordi.

Oradan vaqtlar o’tdi. Kunlarning birida ovchilar arslanni tutib olishdi. Daraxtga bog’langan arslon tinmay na’ra tortardi. Buni eshitgan sichqon yetib keldi va arqonni kemirib arslonni xalos etdi. So’ng shunday dedi;

-Esingdami? Senga yaxshilik qilishim mumkin deganimda ustimdan kulgan eding, mana endi sichqon ham yaxshilik qila olishi mumkinligini ko’rib turibsang.

60-mashq shartiga ko’ra bajariladi.

#### **V. Darsga yakun yasash va baholash**

Dars yakunida o’quvchilar bugungi darsda o’zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So’ngra dars davomida faol qatnashgan o’quvchilar rag’batlantiriladi.

#### **V. Uyga vazifa berish.**

61-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta’kidlanadi.